



CRITERIA FOR RAISING THE CIVIC POSITION OF YOUNG PEOPLE

Doniyor Yuldashev

Lecturer

International school of finance technology and science

Uzbekistan, Tashkent

E-mail: d_yuldashev@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: youth, civic position, evaluation criteria, Indicator System, Youth Policy, social activism.

Received: 19.05.25

Accepted: 21.05.25

Published: 23.05.25

Abstract: The article covers the theoretical foundations of the concept of the Civil position, the rise of the Civil position of young people and modern trends in their participation in social relations. There are also theoretical approaches to assessing the civic position of young people, evaluation criteria and a system of indicators are analyzed.

YOSHLARNING FUQAROLIK POZITSIYASINI YUKSALTIRISH MEZONLARI

Doniyor Yuldashev

o'qituvchi

International school of finance technology and science

O'zbekiston, Toshkent

E-mail: d_yuldashev@gmail.com

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: Yoshlar, fuqarolik pozitsiyasi, baholash mezonlari, indikatorlar tizimi, yoshlar siyosati, ijtimoiy faollik.

Annotatsiya: Maqolada fuqarolik pozitsiyasi tushunchasining nazariy asoslari, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi yuksalishi hamda ijtimoiy munosabatlarda ishtirokining zamonaviy tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini baholashning mavjud nazariy yondashuvlari, baholash mezonlari va indikatorlar tizimi tahlil qilingan.

КРИТЕРИИ ПОВЫШЕНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ МОЛОДЕЖИ

Дониёр Юлдашев

Преподаватель

International School of Finance Technology and Science

Узбекистан, Ташкент

E-mail: d_yuldashev@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: молодежь, гражданская позиция, критерии оценки, система показателей, молодежная политика, социальная активность.

Аннотация: В статье освещены теоретические основы понятия гражданская позиция, современные тенденции роста гражданской позиции и участия молодежи в общественных отношениях. Также проанализированы существующие теоретические подходы к оценке гражданской позиции молодежи, система критериев оценки и показателей.

KIRISH

Zamonaviy dunyo shiddatli va murakkab o‘zgarishlar girdobidadir. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi, ekologik muammolarning keskinlashuvi, xalqaro terrorizm tahdidi va pandemiyalar kabi global chaqiriqlar nafaqat davlatlar va jamiyatlarning rivojlanish strategiyalariga, balki har bir insonning hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bunday sharoitda jamiyatning eng faol va istiqbolli qatlami bo‘lgan yoshlarning roli va mas’uliyati tobora ortib bormoqda. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtiroki, ularning mustaqil fikrashi, tashabbuskorligi va fuqarolik mas’uliyati nafaqat milliy taraqqiyotning muhim garovi, balki global muammolarni hal etish, barqaror kelajakni bunyod etish jarayonlarida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon yoshtar siyosati davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishi, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va havflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, ahloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga intilishga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi”[1].

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishga qaratilgan muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun yoshlarning fuqarolik

pozitsiyasining holatini muntazam ravishda o‘rganish, uning yuksalish dinamikasini tahlil qilish va baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqish zarur.

“Fuqarolik” tushunchasi - bu o‘z-o‘zini hurmat qilish, shaxsning ichki erkinligi, intizom, boshqa fuqarolarga va davlat hokimiyatiga hurmat va ishonch, o‘z vazifalarini bajarish qobiliyatida, vatanparvarlik, milliy va xalqaro tuyg‘ularning uyg‘un kombinatsiyasida ifodalangan uning axloqiy va huquqiy madaniyatini belgilaydigan shaxsning integral sifati deyish mumkin[2].

Fuqarolik pozisiyasi — bu shaxsning davlat va jamiyat faoliyatidagi ijobiy, mas’uliyatli va faol ishtirok etishga tayyorligi, uning huquqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi.

Yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi dinamik jarayon bo‘lib, ularning yoshi, tajribasi, ta’lim darajasi, ijtimoiy muhiti va jamiyatdagi o‘zgarishlar ta’sirida rivojlanib boradi. Bu jarayon quyidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- xabardorlik (yoshlarning mamlakatdagi va dunyodagi ijtimoiy-siyosiy voqealarga qiziqishi va bu haqda ma’lumotga ega bo‘lishi);
- ijtimoiy faollik (jamoat ishlarida, volontyorlikda, muhokamalarda va boshqa fuqarolik faoliyati shakllarida faol ishtirok etish istagini shakllanishi);
- mas’uliyatni his qilish (o‘z harakatlarining oqibatlarini anglash, jamiyat oldidagi burch va majburiyatlarini tushunish);
- tanqidiy fikrlash (mavjud vaziyatni tahlil qilish, muqobil nuqtai nazarlarni ko‘ra bilish va mustaqil xulosalar chiqarish);
- qadriyatlarga sodiqlik(dyemokratik prinsiplarga, inson huquqlariga, qonun ustuvorligiga va ijtimoiy adolatga hurmatning ortishi).
- ijtimoiy hamkorlik (turli xil qarashdagi insonlar bilan muloqot qilish, umumiyl maqsad yo‘lida hamkorlik qilish qobiliyatining ortishi).

Shu sababli ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, mamlakatimizning asosiy vazifalaridan biri “yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish, farzandlarimizning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iborat”[3].

Ilmiy tadqiqotlar, yer yuzida kechayotgani demokratik jarayonlar va global vaziyat, milliy va umumbashariy qadriyatlar hamda qarashlardan kelib chiqib, bugungi kunda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini baholashda quyidagi bir qator mezonlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan:

– mamlakatning siyosiy tizimi, qonunlari va institutlari haqidagi bilim darajasi, inson huquqlari va erkinliklari haqidagi tushunchasi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar haqidagi xabardorligi va boshqalar);

–saylovlarda ishtirok etish darajasi, jamoat tashkilotlari va volontyorlik faoliyatida qatnashish ko‘lami, muhokamalar, aksiyalar va boshqa fuqarolik tadbirlarida ishtiroki;

– demokratik qadriyatlarga munosabati, plyuralizm, tolerantlik, qonun ustuvorligi, inson huquqlariga hurmati, ijtimoiyadolat va tenglikka intilishi, korrupsiya va boshqa ijtimoiy illatlarga qarshiligi, o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishi, atrofdagi voqealarga tanqidiy nigoh bilan qarash qobiliyati, manbalarni tahlil qilish va ishonchli ma’lumotni ajrata olish ko‘nikmasi va shu kabilar

–turli xil nuqtai nazarlarni hurmat qilish qobiliyati, murosaga kelish va hamkorlik qilish istagi, o‘z fikrini boshqalarga yetkaza olish va ularni ishontira olish ko‘nikmasi.

Yuqoridagi mezonlarni aniqlash va o‘lchash uchun so‘rovnomalar va anketalar, intervyular va fokus-guruhsalar, kuzatuv, hujjatlarni tahlil qilish kabi metodlardan foydalanish orqali indekatorlarni ishlab chiqish mumkin. Ya’ni har bir me’zon bo‘yicha yoshlar o‘rtasidagi mavjud vaziyat, ularning raqamlardagi ulushi va boshqalar, indekator vazifasini o‘taydi. Bunda statistik ma’lumotlar va yoshlarning fuqarolik faoliyati davomida erishgan yutuqlari va o‘zgarishlarini aks ettiruvchi materiallar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mezonlar va indikatorlar yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini kompleks baholash, ularning rivojlanishidagi o‘zgarishlarni kuzatish va bu jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha samarali choralar ko‘rish imkonini beradi.

Mamlakatimizda ham yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini yuksaltirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun orqali yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinib, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Qonunda yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari tarkibiga kiritildi[4]

O‘zbekiston Yoshlar ishlari Agentligi, Yoshlar ittifoqi kabi yoshlar siyosatini amalga oshirish, yoshlarning muammolarini hal etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha vakolatli tuzilmalar tashkil etilgan.

Umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida bir qator ijtimoiy fanlarni o‘qitilishi ularda vatanga muhabbat, milliy iftixor tuyg;ularuni shakllantiradi.

Yoshlarning bilimlarini oshirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, jamiyatdagi muhim voqealarga nisbatan munosabatini shakllantirish maqsadida turli xil ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etilmoqda.

Xususan, “Besh muhim tashabbus” loyihasi yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning ijodiy, intellektual va jismoniy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu ularning fuqarolik faolligini oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning faolligini qo‘llab-quvvatlash borasida barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Ta’kidlash joizki, yurtimizda bugungi kunda tamomila yangi bo‘lgan sifat bosqichida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar boshqa ulug‘vor vazifalar bilan bir qatorda, yoshlarning ezu maqsadlari, intilishlari g‘oyalari va eng muhim innovatsion g‘oyalalarini har tomonlama izchil ravishda ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgandir. O‘z navbatida demokratiyaning eng ilg‘or qoidalari va qadriyatlarini faoliyatining yetakchi mezoniga aylantira olgan yoshlarimiz yurtimiz taraqqiyotining tayanchi bo‘lishdek buyuk maqomga ega bo‘ladilar. Umuman olganda, bugungi yuksalish davri siyosatida mamlakatimizda izchil iqtisodiy islohotlar ijtimoiy rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu esa hozirda intellektual jihatdan yetuk va ijodiy salohiyatlari hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, mamlakatimizning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan yoshlarni tarbiya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirilishini nazarda tutadi[5].

Bu kabi islohotlar O‘zbekistonda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini yuksaltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning ayrim misollari bo‘lib, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan bu borada doimiy ravishda yangi loyihalar va tashabbuslar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda.

Shunga qaramay, ayrim yoshlarda fuqarolik faolligining yetarli emasligi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishidagi qiyinchiliklar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga qiziqishning pastligi, turli avlodlar o‘rtasidagi kommunikatsiya muammolari, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish zarurati, mahalliy darajadagi fuqarolik ishtiroki uchun imkoniyatlarning yetarli emasligi kabi muammolarning mavjudligi kuzatilmoqda.

Bu muammolar kompleks xarakterga ega bo‘lib, ularni hal qilish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari va ota-onalarning birgalikdagi sa’y-harakatlari talab etiladi. Yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini yuksaltirishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar ularning faol, mas’uliyatli va bilimli fuqarolar bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi yuksalishidagi o‘zgarishlar va uni baholash mezonlari hamda indikatorlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, ushbu asosida kelgusidagi istiqbolli vazifalarni belgilab olish doimiy muhim vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Bu borada, yoshlarning fuqarolik faolligini oshirish uchun fuqarolik ta'limini kuchaytirish, xususan, maktab, kollej va universitetlarda fuqarolik jamiyati, demokratik institutlar, inson huquqlari va majburiyatlari bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, interaktiv o'qitish metodlarini qo'llash, yoshlarni jamoat ishlariga jalb qilish, ya'ni volontyorlik dasturlarini kengaytirish va rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi[6].

Shu bilan birga, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, saylov jarayonlarida yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, myediasavodxonlikni oshirish, ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish kerak.

Umuman olganda, O'zbekistonda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini yuksaltirish borasida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, hali o'z yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud. Fuqarolik faolligining yetarli emasligi, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga qiziqishning pastligi, axborot manbalarining xilma-xillagini ta'minlash va yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish kabi masalalar e'tibor talab etadi. Bu muammolarning yechimi yoshlarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlash, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ko'maklashish hamda mamlakatning barqaror taraqqiyotiga hissa qo'shish uchun muhimdir.

Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Fuqarolik ta'limini kuchaytirish, yoshlarni jamoat ishlariga jalb qilish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, axborot manbalarining xilma-xillagini ta'minlash, huquqiy savodxonlikni oshirish, turli avlodlar o'rtaсидаги muloqotni yaxshilash va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish shular jumlasidandir. Bu boradagi sa'y-harakatlar davlat organlari, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va ota-onalarning hamkorligida olib borilishi lozim.

Yakuniy natijada, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasining yuksalishi O'zbekistonning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Faol, mas'uliyatlari va bilimli yoshlargina mamlakatni yangi marralarga olib chiqa oladi, demokratik jamiyat qurish va inson huquqlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, yoshlarning har tomonlama rivojlanishiga, jumladan, ularning fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga qaratilgan barcha sa'y-harakatlar davom ettirilishi zarur.

XULOSA.

Fuqaroviylar faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviylar faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviylar faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqealarni, ularning oqibatlari va mavjud muammolarning yechimini chuqur anglashni taqozo etadi. Demak, biz yoshlarimizda fuqaroviylar ongni shakllantirishimiz kerak. Fuqaroviylar ong jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi,

umumiylar yo‘lida fuqarolar o‘rtasida kelishuv bo‘lishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ro‘y beradigan turli ijtimoiymadaniy omillar ta’sirida fuqaroviy ong o‘zgarib boradi va fuqaroviylik to‘g‘risidagi g‘oyalar taraqqiyotida o‘z aksini topadi. Yoshlarni fuqaroviy ongi qanchalik rivojlangan bo‘lsa ular jamiyatdagi ijtimoiy faolligi shunchalik faollashadi[7].

Yoshlarning fuqarolik pozisiyasini yuksaltirish — bu mamlakatning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi, o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada amalga oshirilayotgan mexanizmlar va chora-tadbirlar yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini mustahkamlash va mas’uliyat hissini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Tekshirilgan va samarali mexanizmlar orqali yoshlarning fuqarolik pozisiyasini mustahkamlash davlat va jamiyatning umumiylar maqsadi bo‘lishi zarur.

Foydalanimanfaatli adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон 2017 йил; 27-286.
2. Вишнякова-Вишневецкая А. К. Образовательная среда высшего учебного заведения как фактор развития личностных компетенций учащихся: дисс. ... к. пед. н. СПб., 2010. 243 с.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // Халқ сўзи газетаси, 28-декабр. 2018 йил.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘RQ-406-sonli Qonuni.
5. Nazarova Z. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishdagi islohotlar va ularning ahamiyati // Oriental Art and Culture. 2023. №3.
6. Abdullayev G‘. *Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishning pedagogik asoslari*. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Ismailov B., Latipova N. Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari // ORIENSS. 2021. №2.